disaga aylanadi. Yozuvchi ayol siymosida jamiyatning axloqiy mezonlarini mujassamlashtiradi hamda insoniylik, vijdon, sadoqat va matonat kabi qadriyatlarni badiiy umumlashtiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ayol obrazining psixologik chuqurligi va ichki dramatizmi yozuvchi realizmining asosiy belgilaridan biridir. Ayol qahramonlar hayotiy ziddiyatlar, ruhiy sinovlar va axloqiy tanlovlar jarayonida shakllanadi, bu esa obrazning tabiiy va ishonarli chiqishiga xizmat qiladi. Shuningdek, ayol obrazining ijtimoiy faol shaxs sifatida tasvirlanishi yozuvchining zamonaviy tafakkurini namoyon etadi hamda ayolning jamiyatdagi o'rnini yangicha estetik talqinda ko'rsatadi. Badiiy tasvir vositalarining puxta qo'llanilishi, ayniqsa, ichki monolog, dialog va ramziy detallarning uyg'unligi ayol obrazining estetik ta'sirchanligini kuchaytiradi. Umuman olganda, Asqad Muxtor asarlarida ayol siymosi milliy qadriyatlar va zamonaviy ijtimoiy qarashlar uyg'unligida yaratilgan bo'lib, o'zbek nasrida ayol obrazining yangi bosqichini belgilaydi. Mazkur tadqiqot natijalari o'zbek adabiyotshunosligida ayol obrazini o'rganish yo'nalishlarini yanada kengaytirish, yozuvchi ijodini chuqurroq tahlil qilish va uning estetik konsepsiyasini aniqlashtirish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


(1). Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent, "Akademnashr", 2010.
(2). Normatov U. Ijod psixologiyasi. Toshkent, "Akademnashr", 2011.
(3). Rahmonov N. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. Toshkent, "Mumtoz so'z", 2012.
(4). Sultonov I. O'zbek romanchiligi taraqqiyoti. Toshkent, "Fan", 2014.
(5). Yo'ldoshev B. Badiiy mahorat masalalari. Toshkent, "Tafakkur", 2015.
(6). Karimov B. XX asr o'zbek nasrida psixologizm. Toshkent, "Akademnashr", 2016.
(7). Qodirov H. O'zbek nasrida xarakter va tip masalasi. Toshkent, "Fan va texnologiya", 2017.
(8). Adabiyot nazariyasi (jamoa mualliflar). Toshkent, "Innovatsiya-Ziyo", 2018.
(9). O'zbek adabiyoti tarixi. 6-jild, Toshkent, "Fan", 2019.
(10). Sharipov A. Zamonaviy o'zbek nasrida badiiy tafakkur. Toshkent, "Akademnashr", 2020.
(11). Ergasheva M. O'zbek adabiyotida ayol obrazi evolutsiyasi. Toshkent, "Tafakkur bo'stoni", 2020.
(12). Ismoilov J. Realizm va badiiy tafakkur masalalari. Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2021.
(13). Xudoyberdiyev R. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. Toshkent, "Akademnashr", 2021.
(14). Abdug'afforov A. Badiiy obraz va estetik ideal. Toshkent, "Mumtoz so'z", 2022.
(15). O'zbek nasri taraqqiyot tamoyillari (ilmiy maqolalar to'plami). Toshkent, "Fan", 2022.
(16). Karimova D. XX–XXI asr o'zbek adabiyotida ayol talqini. Toshkent, "Akademnashr", 2023.
(17). To'xtayeva L. Psixologik tasvir va ichki monolog poetikasi. Toshkent, "Innovatsion rivojlanish", 2023.



**Saloxiddinova Nigoraxon Inomjonovna (University of economics and pedagogy NOTM, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor v.b.)**


## ZEBO MIRZAYEVA SHE'RLARIDA RUHIY KECHINMA TASVIRI


***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada Zebo Mirzayeva she'riyatida ruhiy kechinmalarning badiiy tasviri tahlil etiladi. Shoira lirikasida ichki hissiyotlar, intim tuyg'ular va lirik qahramon ruhiyati qanday ifodalangani misollar asosida yoritiladi. Obrazlar tizimi, xususan, tabiat unsurlari orqali muhabbat, hijron va iztirob holatlari poetik talqin qilinadi. Shuningdek, kontrast, ramz, takror, ritorik so'roq kabi badiiy vositalarning ruhiy-emotsional mazmunni ochishdagi o'rni ochib beriladi.*



***Kalit so'zlar:*** *she'riyat, ruhiy kechinma, lirik qahramon, obraz, muhabbat, hijron, iztirob, poetik tasvir, kontrast, ramz, badiiy vositalar, emotsionallik, lirik tahlil.*



**Салохиддинова Нигорахан Иномжоновна (Университет экономики и педагогики НОТМ, доктор философских наук по филологии, и.о. профессора)**


## ОПИСАНИЕ ДУХОВНОГО ОПЫТА В СТИХАХ ЗЕБО МИРЗАЕВОЙ


***Аннотация****. В данной статье анализируется художественное изображение духовных переживаний в поэзии Зебо Мирзаевой. Лирика поэтессы подчеркивает, как выражаются внутренние чувства, сокровенные эмоции и психика лирического героя. Система образов, в частности, через элементы природы, состояния любви, изгнания и страдания, интерпретируется поэтически. Также раскрывается роль художественных средств, таких как контраст, символика, повторение и риторический вопрос, в раскрытии духовного и эмоционального содержания.*



***Ключевые слова:*** *поэзия, духовный опыт, лирический герой, образ, любовь, изгнание, страдание, поэтический образ, контраст, символ, художественные средства, эмоциональность, лирический анализ.*

**Salokhiddinova Nigorakhan Inomjonovna (University of Economics and Pedogogy NOTM, Andijan, Doctor of philosophy in philological sciences, associate professor, etc.)**

## THE DESCRIPTION OF SPIRITUAL EXPERIENCE IN ZEBO MIRZAYEVA'S POEMS

***Annotation.*** *This article analyzes the artistic depiction of spiritual experiences in the poetry of Zebo Mirzayeva. The poetess's lyrics highlight how inner feelings, intimate emotions, and the psyche of the lyrical hero are expressed. The system of images, in particular, through the elements of nature, states of love, exile, and suffering are poetically interpreted. The role of artistic means such as contrast, symbol, repetition, and rhetorical questioning in revealing the spiritual and emotional content is also revealed.*

***Keywords:*** *poetry, spiritual experience, lyrical hero, image, love, exile, suffering, poetic image, contrast, symbol, artistic means, emotionality, lyrical analysis.*

**Kirish.** "Umuman, she'riyat kishi qalbiga, eng avvalo, ruhiy tashnalik, cheksiz ehtiyoj, ajib bir sehr tariqasida kirib keladi, shekilli. Shuning uchun men she'rni ehtiyoj farzandi, deb atayman. ... Bu ehtiyoj chinakam shoirni umr bo'yi ta'qib etadi" [5;19-b.], deb yozgan edi Abulla Oripov. Haqiqatdan ham, she'r deb atalmish asar ijodkor farzandi. Shoir borliq bilan, ichki olami bilan ziddiyatga kirishar ekan ruhiyati larzaga keladi, nimadandir qoniqmaydi, nimanidir o'zgarishini xohlaydi va buni badiiy tarzda shoirona ifoda etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Lirik qahramon ruhiyatidagi kechinmalarning holatlari va jarayonlarini tasvirlash, botiniy sezgilarni obrazlarda jamlab ko'rsatish Zebo Mirzo she'riyatining alohida xususiyatlaridan biridir.

Tadqiqotchi N.Jumatova yangi davr she'riyatini "...ichki sezimi, qalb tuyg'usi, obrazli fikrlashi qashshoq kishilar bu she'riyatni to'la anglash, uning teranligidan hayratga tushishga qodir emaslar" [2;36-b] tarzida baholaydi. Haqiqatdan ham, tasvirning mavhumlashishi, tuyg'uning botindagi muammolarga qaratilishi lirikada yetakchi omilga aylanmoqda. Natijada olam qayta poetik kashf etiladi va satrlar zamirida shoirning badiiy niyati falsafiylashadi. Poetik obraz yaratish yo'llari haqida mulohaza yuritgan adabiyotshunos B.Akramov bu borada quyidagilarni yozadi: "Poeziyada emotsionallik kuchli, aktiv element hisoblanganligi uchun unda intuitiv ravishda tug'ilgan obrazli ifoda, tabiiy – quyma lirik lavhalar, beixtiyor ilhom ola kelgan kechinma-obrazlar asosiy mavqeyini egallaydi" [1;15-b.].

**Tadqiqot metodologiyasi.** She'r kontekstida obrazning assotsiatlashuvi, kontrastlilik, ramzlar tilining poetikligi kabilar ruhiy kechinmani bo'rttirib ko'rsatishga xizmat qiladi. Shuningdek, takrorlar, ritorik so'roq, ko'p nuqta kabilarning qo'llanilishi lirik kechinmani, lirik qahramon ruhiy holatini betakrorligini ta'minlaydi. Zebo Mirzayeva she'rlarida ayni shu jihatlar uyg'unlashuvi kuzatiladi.

She'riy asarlarida lirik qahramon voqelikni mushohada yuritish bilan boshlaydi. Shoiraning bir talay she'rlarida *hayotning go'zalligi, yashashning baxtligi, nurlarning oppoqligi* ijobiy kayfiyatni bildirsa, *yurakning qoni, uning ichilishi, makri zo'rlarning ustunligi* kabilar bir-birini inkor etishi kuzatiladi. Lekin ijodda emotsionallik muhim hodisa bo'lib, ijodkor voqelikni quyma tuyg''ularga qorishtirib yuboradi. Shoira satrlar zamiriga kutilmagan ruhiy holat muvozanatini singdirishga harakat qiladi.

**Tahlil va natijalar.** Zebo Mirzo she'riyati chinakam tuyg'ular, intim kechinmalar makoni desak adashmaymiz. Uning she'riyatida bir yoki bir necha obrazlar yaxlit holda yoki o'zi alohida lirik qahramonning hissiy olami, ko'ngil kechinmalarini aks ettira oladi. Masalan uning:

*Azizim*
*Ne uchun, maysa emasmiz?*
*Yellar o'pganida suykalib o'tgan?*
*Ne uchun, ne uchun daraxt bo'lmadik.*
*Ildizi*
*Shoxlari, chirmashib ketgan?* [4;24-b.]

She'rida qo'llanilgan *maysa, shamol, daraxt* obrazlari umumlashib lirik qahramonning armonli muhabbatini tarannum etadi. Lirik qahramon goh maysa bo'lgisi, shamolga suykalgisi yoki daraxt bo'lgisi keladi. Nima qilib bo'lmasin u yori bilan birga bo'lmoq istaydi. *Adirlar ortida shamol bo'lsaydik, Ko'klarda ruhimiz qo'shilarmidi?* She'rdagi kechinma shunday shiddatliki, undagi nadomat, alam, afsuslanish beixtiyor o'quvchiga ham yuqadi. *"Ne uchun hayotim bu qadar sahro? Nechun yuragimda bu qadar zorlik. Qarshimda shovullab oqar bir daryo, Bir tomchi suv so'rab o'tinolmayman"*. Lirik qahramon bunday ulkan muhabbati bilan bu tor dunyoda qanday yashashini tasavvur eta olmaydi: "Endi shu qadar muhabbat bilan, Biz qanday yashaymiz bu tor dunyoda?" O'zining javobsiz savollaridan ezilgan lirik qahramon daraxt, shamol, maysa bilan yashashni xohlashini bayon etadi. Bu orqali o'z dardini oz bo'lsa-da yengillatishga, ko'ngliga taskin, dalda berishga harakat qiladi.

*Milyon yil kutdim-u umidsiz, abgor,*
*Bir dilni Xudoni sevganday sevdim!*
*Keyin... ko'tarildi buyuk bir to'fon,*
*Falakni kuydirdi hasratim, ohim.*
*Hech kimga bunchalik kuygan emasdim,*
*Balki shu baxtimdir yoki gunohim.*

Shoira ijodida ishq mavzusi asosiy o'rinni egallashi hech kimga sir emas. Borliqdagi har bitta detaldan ishq bunyod eta olishi ijodkorning o'ziga xos uslubidan biridir. She'rdagi sarkash kayfiyat uning motivini belgilaydi. Ruhiy holatni ko'rsatib turuvchi *umidsizlik, abgorlik, buyuk to'fonning ko'tarilishi, falakning kuyishi* – bularning barcha-barchasi chuqur iztirobli kechinmalarni ifodalab kelgan. So'zning hissiy-mavhumiy ko'lami kengayishi bilan holat oddiylikdan murakkablik tomon o'sib boradi. Joiz bo'lsa, hatto o'quvchiga she'rni teran anglashni qiyinlashtiradi. Bu esa she'r tiynatining o'ziga xosligini ko'rsatadi.

*Kimdir ilhom oldi,*
*Kimdir zavq oldi,*
*Men esa ko'ngilning kuzidan bezdim.*
*Bir tun alamlardan jon berayotib*
*Yuragimga bahor kirganin sezdim.*
*U qaytdi uyg'otib dillar tongini,*
*Jonbaxsh ko'zlaridan chekindi O'lim.*
*G'animim, sen agar bo'lmaganingda,*
*Sevgimiz bo'lmasdi bu qadar so'lim!* [3;13-b.]

She'rning bunday davom etishi, albatta, ajablanarli hol. Chunki biz lirik qahramonning allaqachon iztiroblarga taslim bo'lgan qiyofasini his qilib bo'lgan edik. Lekin ijodkor she'r so'nggini umidsiz kayfiyat bilan tugatish niyati yo'q. U, baribir, o'sha alamli sevgidan ham quvonch topaveradi. Hatto, muhabbatini armonga aylantirib bergan g'animga ham tashakkur aytishni unutmaydi. She'r misralarida lirik qahramonning turfa qiyofasini o'quvchi his qilar ekan, demak, og'riq ham, quvonch ham uning qalbidan sizib chiqayotganligiga ishonadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, Zebo Mirzayeva she'riyati inson ruhiyatining eng nozik qatlamlarini badiiy aks ettirishga qodirligi bilan ajralib turadi. Shoira lirik qahramon kechinmalarini obrazlar, ramzlar va badiiy vositalar orqali chuqur va ta'sirchan ifodalaydi. Uning she'rlarida muhabbat, hijron, iztirob va umid kabi tuyg'ular o'zaro uyg'unlashib, o'quvchini ruhiy mushohadaga chorlaydi. Ayniqsa, kontrast, takror va ritorik so'roqlarning mahorat bilan qo'llanishi she'rlarning emotsional kuchini oshiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

(1). Akramov B. She'riyat gavhari. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979.
(2). Jumatova N. Hozirgi o'zbek she'riyatida rang bilan bog'liq obrazlar. Fil. fan.. nomz... diss., Toshkent, 2000, 124-bet.
(3). Mirzayeva Z. Ishq. Toshkent, "Akademnashr", 2011.
(4). Mirzayeva Z. Nur kukunlari. Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2004.
(5). Oripov A. Ehtiyoj farzandi. Toshkent, "Yosh gvardiya", 1988.

**Mambetov Ikram Kamalovich (Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti; ikram mambetov79@mail.ru)**

## QORAQALPOQ SHE'RIYATIDA AN'ANAVIY JANRIY SHAKLLAR

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada qoraqalpoq she'riyatida an'anaviy janriy shakllarning qo'llanilishi, ularning xususiyatlari hamda tarixiy rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Qoraqalpoq she'riyatining shakllanishida xalq og'zaki ijodi, termalar va dostonlarning muhim o'rni ko'rsatib beriladi. Shuningdek, XVIII–XIX asrlarda Sharq mumtoz she'riyati ta'sirida ayrim aruz unsurlarining kirib kelishi, ammo barmoq vaznining asosiy poetik vazn sifatida saqlanib qolgani ilmiy jihatdan asoslanadi. Tadqiqot natijalari qoraqalpoq she'riyatining shakliy taraqqiyoti folklor merosi, mumtoz adabiyot tajribasi hamda zamonaviy adabiy jarayonlar ta'siri bilan shakllanganini ko'rsatadi.*

***Kalit so'zlar:*** *an'anaviy janriy shakllar, barmoq vazni, aruz vazni, folklor an'analari, turkiy adabiyot*

## ТРАДИЦИОННЫЕ ЖАНРОВЫЕ ФОРМЫ В КАРАКАЛПАКСКОЙ ПОЭЗИИ

***Аннотация.*** *В данной статье анализируется использование традиционных жанровых форм в каракалпакской поэзии, их метрические особенности и этапы исторического развития. Показана*